



UDK 510.532

**МАКТАБГАЧА ТАРБИЯ YOSHIDAGI BOLALARNING
ELEMENTAR MATEMATIK TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISHDA
OILA BILAN ISHLASHNI TASHKIL QILISH SAMARADORLIGI**

Phd, Ikromova Musharrafxon Ne`matillayevna,

Namangan muhandislik texnologiya instituti,

Telefon: 97 231 79 51

magistrant, Jaloldinova Husniya Abdusattor qizi,

Namangan davlat universiteti,

Email: jaloldinovahusniya@gmail.com,

Telefon: 94 170 58 99

student, Jaloldinov Nizomjon Abdusattor og`li,

Namangan muhandislik-qurilish instituti,

Email: jaloldinovnizomjon@gmail.com,

Telefon: 93 944 35 97

Annotatsiya. Tarbiyachi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning ota-onalari va qarindoshlari bilan maktabgacha ta`lim muassasasida uchrashganda ham, uylariga borganda ham matematika asoslarini o`rgatishi mumkin. Bunday ishni o`tkazish uchun tarbiyachi nimalar haqida bilishi kerakligi to`g`risida fikr yuritimiz. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga matematika asoslarini o`rgatish zarur, albatta. Ayniqsa, hozir maktabgacha tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish sharoitida bu masala nihoyatda kerak bo`lib qoldi. Maktabgacha tarbiya konsepsiyasi maktabgacha tarbiya muassasalarida ta`lim-tarbiya jarayonini bolaning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga yo`naltirishni tavsiya qiladi.

Kalit so`zlar: tarbiya, konsepsiya, ta`lim dasturi, ko`nikma, tafakkur.

**ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ РАБОТЫ С СЕМЬЕЙ ПО
ФОРМИРОВАНИЮ ЭЛЕМЕНТАРНОГО МАТЕМАТИЧЕСКОГО
ВООБРАЖЕНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНИКОВ**

PhD, Икромова Мушаррафхан Нейматиллаевна,

Наманганский инженерно-технологический институт,

Телефон: 97 231 79 51

Магистр, Джалолдинова Хусния Абдусатторовна,



*Наманганский государственный университет,
Электронная почта: jaloldinovahusniya@gmail.com,
Телефон: 94 170 58 99
студент, Джалолдинов Низомжон Абдусатторович,
Наманганский инженерно-строительный институт,
Электронная почта: jaloldinovnizomjon@gmail.com,
Телефон: 93 944 35 97*

Аннотация: *Воспитатель может обучать основам математики родителей и родственников детей дошкольного возраста как при встрече в ДОУ, так и при выезде к себе домой. Подумаем, что должен знать воспитатель для проведения такой работы.*

Конечно, необходимо обучать дошкольников основам математики. Тем более сейчас, в условиях реализации концепции дошкольного образования, этот вопрос стал крайне необходимым. Концепция дошкольного образования рекомендует направить образовательный процесс в дошкольных образовательных учреждениях на развитие творческих способностей ребенка.

Ключевые слова: *образование, концепция, образовательная программа, навыки, мышление.*

EFFECTIVENESS OF ORGANIZING WORK WITH THE FAMILY ON FORMING ELEMENTARY MATHEMATICAL IMAGINATION OF PRESCHOOL CHILDREN

*Phd, Ikromova Musharrafkhan Ne`matillayevna,
Namangan Institute of Engineering Technology,
Phone: 97 231 79 51
Master's student, Jaloldinova Husniya Abdusattorovna,
Namangan State University,
Email: jaloldinovahusniya@gmail.com,
Phone: 94 170 58 99
student, Jaloldinov Nizomjon Abdusattorovich,
Namangan Engineering Construction Institute,
Email: jaloldinovnizomjon@gmail.com,
Phone: 93 944 35 97*



Abstract: *A teacher can teach the basics of mathematics to parents and relatives of preschool children both when they meet at a preschool educational institution and when they go to their home. Let's think about what a teacher should know to carry out such work.*

Of course, it is necessary to teach preschoolers the basics of mathematics. Moreover, now, in the context of the implementation of the concept of preschool education, this issue has become extremely necessary. The concept of preschool education recommends directing the educational process in preschool educational institutions to the development of the child's creative abilities.

Key words: *education, concept, educational program, skills, thinking.*

KIRISH. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8- oktyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 7-martdagi PF-87-son farmonlari hamda "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 14-iyuldagi PQ-322-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining "Moliya vazirligi huzurida Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish hamda budjet tashkilotlarida moliyaviy nazoratni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 24-fevraldagi 129-son qaroriga muvofiq maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklik jarayonlarini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi: [1].

1. Belgilansinki, 2022-yil 1-sentabrdan boshlab davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, shu jumladan, oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida:

Davlat budjeti mablag'lari hisobidan subsidiyalar xodimlarning ishga kelib-ketishi hamda tarbiyalanuvchilarning davomatidan kelib chiqib Maktabgacha ta'lim vazirligining nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish axborot tizimida (keyingi o'rinlarda NMTTBAT) avtomatik ravishda hisoblab chiqiladi;

"Bolalar bog'chasida tarbiya va ta'lim dasturi" da bolalarga matematika asoslarini o'rgatishning mazmuni belgilab berilgan. Bu mazmunga muvofiq tarbiyachi bolalarini uyda o'rgatayotgan ota-onalarga ba'zi tavsiyalarni berishi lozim. Agar bolaning matematik ta'limi rivojlantirilmasa, tasodifan o'zlashtirilgan ma'lumotlarga qaramay, uning aqliy rivojlanish saviyasi bu yoshdagi darajasida bo'la olmaydi. [2].

TADQIQOT METODI VA METODOLOGIYASI.



Maktabgacha tarbiya yoshidagi ta`limni bola o`rganayotganini tushuna oladigan qilib tuzish maqsadga muvofiq. Bu fikrni tushuntirish uchun sodda misol keltiramiz. Bolaning oldiga guruch solingan tog`orachani qo`yamiz. Bu tog`orachadan 5 qoshiq guruch olishni tavsiya qilamiz. 4-6 yoshlik bola uchun bu vazifa qiyinlik qilmaydi. U 5 qoshiq guruchni xato qilmay oladi. Shundan keyin unga “Endi solingan guruchingni tog`orachaga qaytarib sol va sana”, - deymiz.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola guruchni harakatlarni sanab qaytarib soladi, u qoshiqning qay darajada to`laligiga mutlaqo e`tibor bermaydi. Bola to`rtgacha sanaganidan keyin “Necha qoshiq guruch qoldi?” – deb so`raymiz. “Bir qoshiq” deb javob beradi u. Tekshirib ko`rishni taklif qilamiz. Bola bilan birga guruchni qoshiqqa (to`ldirib) solamiz. Guruch 3 qoshiq chiqadi. Nega bunday bo`ldi, degan savol bolaning boshini berk ko`chaga tiqib qo`yadi, chunki u mazkur faoliyatni bajarishda majburiy bo`lgan ma`lum qonuniyatlarga amal qilmadi-da.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolani shunday o`qitish kerakki, uni o`rab olgan borliq (tabiat) tushunarli bo`lsin. Ota-onalar bunda unga yordam berib, muhim aloqalarni va o`zaro bog`lanishlarni ko`rsatishi, mulohaza yuritishga, solishtirishga o`rgatishi kerak. [3].

Ko`pchilik ota-onalar bolalarni eng oldin o`ngacha, yigirmagacha va hatto yuzgacha sanashga o`rgatadilar. Ularni ranjitishga to`g`ri keladi. Juda ko`p hollarda bolalarning ota-onalari g`ururlanadigan bunday “bilim”lari foydasiz bo`ladi, chunki bola bunda sonning nomini va qatordagi tartibini mexanik ravishda yodlab oladi, mutlaq sanoq deb ataluvchi sanash bo`yicha mashq qilib oladi. Odatda, unda bolalarda sonlar haqida yetarli ravishda tasavvur mavjud bo`lmaydi.

Bolani sanashga qanday o`rgatish kerak? Sanoq bola uchun ma`lum tartibda yodlab olingan so`zlar majmuasi bo`lmay, balki sanash sonning mazmunini bilganlikka asoslanadigan bo`lishiga qanday erishish mumkinligida. Bu boradagi eng sodda va samarali usul buyumlarni qayta sanashdir. Buning uchun maxsus mashg`ulotlarni tashkil qilishning hojati yo`q. Bolaning kattalar bilan muloqoti vaqtida, bolalar o`yinlari jarayonida sanoqqa oid mashqlar o`tkazish uchun imkoniyatlar ko`p. “Uy oldida nechta daraxt o`smoqda? Gulpushtada nechta gul ochilgan? Mashinalar turadigan joydagi qizil mashinalar nechta? Qutidagi qalamlar nechta? Beshta tarelka, beshta qoshiq keltir. Nechta odam choy ichsa, shuncha piyola keltir (qo`y)”. [4].

Katta guruhdagi bolalarga ham shunga o`xshash ko`plab savollar berish mumkin yoki shunday topshiriqlar berish mumkinki, ularni bajarganda bolalar sanoq bo`yicha mashq qilishsin.



TADQIQOT NATIJASI.

Demak, Ota-onalarga o`z bolalari bilan shug`ullanganlarida ko`proq o`yin metodlaridan foydalanishni maslahat beramiz. Bolalar uchun “Nima o`zgardi?” o`yini qiziqarli. Bu o`yin orqali buyumlarning ikki guruhini taqqoslash oson, qiziqarli tarzda o`zlashtirishni ta`minlaydi. Masalan, pastki va ustki qatorda ikki xil rangli oltitadan uchburchak turibdi. Bola qizil rangli uchburchaklar ham, sariq rangdagi uchburchaklar ham oltitadan ekanini ta`kidlaydi. Shundan keyin u ko`zlarini yumadi, bolalardan biri shu vaqt ichida bitta qizil uchburchakni olib qo`yadi. Bola ko`zini ochib nima o`zgarganini aniqlashi va bu haqida gapirib berishi kerak. O`yinni davom ettirib, goh yuqori qatordan, goh pastki qatordan bittadan buyumni olish mumkin, goh yuqori poloskaga, goh pastki poloskaga bittadan buyuymni qo`yish mumkin. Ba`zan esa hamma buyumlarni qatorlarda o`zgarishsiz qoldirish ham mumkin. Bolalar o`zgarishlarni payqab, bunda ham qanday buyumlar ko`p, qanday buyumlar kam yoki buyumlar teng ekanini aniqlashlari kerak. Bolalarning sevimli o`yinlari bo`lmish koptok o`ynashdan matematik bilimlarni mustahkamlashda foydalanish mumkin. Sayr paytida siz bolaga koptokni irg`itasiz va sonni aytasiz. Bola to`pni orqaga qaytarib, kelishilganiga binoan, bundan bitta ortiq yoki bitta kam sonni aytishi kerak.

Shunday qilib, bolalar sonlarning natural ketma-ketligi qonunini o`zlashtirishadi: har bir keyingi son oldingisidan bitta ortiq. Qo`shish va ayirishni o`rganishga tayyorlash maqsadida bolalarni sonlarning ikkita kichik sondan iborat tarkibi bilan tanishtirishi kerak. Oldin konkret materialda sonni ikkita kichik sondan (10 ichida) tuzish mumkin ekanligini aytish zarur. Buning uchun ikki xil rangdagi istalgan buyumlardan: kubchalar, tugmalar, kvadratlar va h.k.dan foydalanish mumkin. Masalan, 5 ta qizil kvadratni qator qilib qo`yib, ularni sanab chiqish, shundan keyin bitta qizil kvadratni ko`k kvadrat bilan almashtirib, keyin ularni bunday sanash: to`rtta qizil, bitta ko`k kvadrat, hammasi bo`lib, beshta. Shundan keyin yana bitta qizil kvadratni ko`k kvadrat bilan almashtirib, yana sanab chiqish: uchta qizil va ikkita ko`k kvadrat, hammasi beshta. Shu usul bilan besh sonning tarkibining mumkin bo`lgan hamma variantlari olinadi: to`rt va bir, uch va ikki, ikki va uch, bir va to`rt. [5].

Sonning tarkibi o`rganilayotganda “ Toping-chi, qancha?” o`yini qiziqarli va foydalidir. Katta bola bilan kichik guruhdagi bir bola munchoqlarni qayta sanab chiqib, ularni ikki qo`liga joylashtiradi. Bola chap qo`lida nechta munchoq, o`ng qo`lida nechta munchoq bor ekanini aytishi kerak. Masalan, ikkita va beshta, birgalikda yettita. Munchoqlar qanday yoyilganini topish uchun bittalab sanash



kerak, bolalar son tarkibining mumkin bo`lgan hamma variantini sanab chiqadi va ularni yaxshi eslab qoladi.

Chunonchi, bunday o`yinlarda bolalar sonlar orasidagi munosabatlar, tenglik va tengsizlik, sonning ikki kichik sondan iborat tarkibi haqidagi tasavvurlarni o`zlashtiradilar, o`z javoblarini asoslashga o`rganadilar.

Bolalarni matematika asoslari bilan tanishtirishda shuni esda tutuish kerakki, matematika - faqat sonlar haqidagi fan emas. Bolalarning aqliy rivojlanishida o`lchash bilan tanishtirish katta ahamiyatga ega. Biz kundalik hayotimizda o`lchash zaruratiga juda ko`p duch kelamiz. Bu vaziyatlardan bolalarni o`qitishda foydalanish kerak. [6].

Ona nonushta tayyorlamoqda. Bola odatdagidek shu yerda, oshxonada. Ko`pincha u onasiga halal beradi, chunki uning qiladigan ishi yo`q-da. Shu momentdan foydalaning. Ona bolasiga murojaat qilishi mumkin: “ Men manniy bo`tqasi uchun manniy yormasini sepishim kerak. Shunda menga yordam ber”.

Bola ba`zan onasi bug`doy yormasini bo`tqaga qanday o`lchayotganiga e`tibor bermaydi. Shu sababli ko`pincha bolalar yormani to`g`ridan- to`g`ri paketdan (qog`oz xaltadan) solishni taklif qilishadi. “ Agar men sen aytgandek qilsam, yorma juda ko`p tushishi, unda bo`tqa quyuq va bemaza bo`lishi mumkin”. Ona yormani qoshiqlab o`lchashni taklif qiladi: “Kel, yormani qoshiqlab o`lchaymiz”. Yormani o`lchash jarayonida bolaning e`tiborini har gal qoshiqqa bir xil miqdorda yorma solish kerakligiga qaratish kerak. O`lchash jarayoni har doim bola uchun qiziq, shu sababli ko`pincha yormani solish bilan qiziqib ketib, u natija nima bo`lishini unutadi. Sizning vazifangiz bolaning e`tiborini o`lchash natijasiga qaratishdan iborat: besh qoshiq yorma o`lchanadi. Ba`zan topshiriq to`g`ri bajarilganligini tekshirib turish foydali. Buning uchun esa bolalar o`lchagan yormani ular bilan birga qayta o`lchab chiqish kerak. [7].

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, tarbiyachining asosiy vazifasi – ota-onalarning bolalar tasavvurini formal rivojlantirishlarining oldini olish va bolani o`qitishdagi asosiy narsa beriladigan bilimlar hajmi emas, balki o`qitish natijasida olinadigan rivojlantiruvchi samara ekanini ko`rsatishdan iborat. Bola o`qitish natijasida aqlliroq bo`lishi kerak. Agar u o`ylashni, mulohaza yuritishni, javoblarni o`ylab ularni mantiqan asoslab bera olishni o`rganib olsa, Siz istalgan natijaga erishgan bo`lasiz. Bolalarning ta`lim- tarbiya jarayonlarida ota-onaning ro`li katta hisoblanadi, shuning uchun ta`lim- tarbiya jarayonlarida juda e`tiborli bo`lish talab etiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8- oktyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”
2. “Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 14-iyuldagi PQ-322-son qarori.
3. Bikbayeva N.U Alieva U.S Matematika. «Maktabgacha tayyorlov guruhi tarbiyachilari uchun metodik qo‘llanma» T., «o‘qituvchi» 1999-y.
4. Bikbayeva N.U. «Maktabgacha ta'lim muassasasida matematika mashg'ulotlarini rivojlantirish» T., «o‘qituvchi» 1998- y
5. Bikbayeva N.U. Ibragimova Z.I. Kosimova X.I. «Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish» T. «o‘qituvchi» 1995-y
6. Bikbayeva N.U. «Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda matematik tasavvurlarni rivojlantirish» T., «o‘qituvchi» 1996- y
7. Jumayev M.E. Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. (KHK uchun) Toshkent. “Ilm Ziyo” 2005- yil.
8. <https://www.integer.uz/steam>
9. <http://exclusive.multibriefs.com>
10. <http://www.bmbf.de>
11. www.edu.uz
12. www.uzedu.uz